

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2023

6/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

Нөкис

6/3-сан 2023

декабрь

Шөлкемлестириүшилер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Лобар МУХТОРОВА
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Раъно ОРИПОВА
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Фурқат РАЖАБОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Сайёра РАХМОНОВА
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Барлықбай ПРЕНОВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Дилшода САПАРБАЕВА
Нуриддин АЧИЛОВ	Феруза САПАЕВА
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Зайниддин САНАҚУЛОВ
Марифжон АХМЕДОВ	Қаххор ТУРСУНОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Фархад БАБАШЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Қуанишбек ТУРЕКЕЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Гулноз ТУРАЕВА
Шахло БОТИРОВА	Гулмира ТОЖИБОЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Дилбар ҚАРШИЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ	Вохид ҚАРАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Дилбар ҚОДИРОВА
Лола ИСРОИЛОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Абдушукур ШОФҚОРОВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Дилфуза ШАББАЗОВА
Сабит НУРЖАНОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Мехри НАРБАШЕВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Улфат МАҲҚАМОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Уролбой МИРСАНОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Нуржан МАТЧАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Сафо МАТЧОН	Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Шукурулло МАРДОНОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Шахсанам МАТУПАЕВА	Қонысбай ЮСУПОВ

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ӘДЕБИЯТ

Raximova N. Xorijiy tilni o'qitish sharoitida bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati	7
Atamuratov R. Raqamli transformatsiya - ta'lim samaradorligining asosi	14
Norov N. Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlarida adolat kategoriyasi	21
No'monxonova M. Axborot texnologiyalari va bo'lajak tilshunoslarning kommunikativ kompetensiyalari metodikasini rivojlantirishi va hozirgi holati	26
Суюнов Б.Т. Тезаурус – лингвистик тараққийет омили	33
Shofqorov A.M. Hamid Olimjonning takrordan foydalanish mahoratiga doir	39
Fayzimatova N. Kinship terms and teknonymy	44
Nazarova R. Effectiveness of teaching through riddle	51
Nishonova Sh. The role of gestures in effective communication	56

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Tilegenov A.T. Yoshlarda milliy g'oyani shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning metod va vositalari	61
Xalikov F. Ta'lim tizimida testologik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik mazmuni	66
Rasulova G. Adabiy ta'limda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish	76
Baisov A. Umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish muammolari	82
Mirsultanov I.M., Xasanov A.R. O'qituvchilik kasbida barqarorlikni shakllantirish muammosining mavjud holati	86
Jo'raev Yu.K. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida elektrotexnika fanini o'qitishda ta'lim usullaridan amaliy foydalanish yo'llari	90
Yo'ldosheva D. Kreativlikni rivojlantirish muammosiga doir xorijiy tadqiqotlarning retrospektiv tahlili	94
Tojiboyev J. Kreativ yondashuv asosida talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish mazmunini belgilashning pedagogik talablari	102
Siddiqov B. O'quvchilarning aksiologik kompetentligini rivojlantirish tushunchasi va tahlili	108
Mexmonaliyev Sh.N. Husayn Voiz Koshifiy ijodida axloqiy tarbiya masalalarining yoritilishi	113
Muminova D. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	120
Axmedov B.A. Muammoli ta'limda suqrotona yondashuv metodikasi	126
Bobumurodova L.E. Talabalarning kasbiy-metodik ijodkorligini rivojlantirish	131
Abdusattorov A., O'rinova N. O'zbek xalq cholg'ulari orkestiri vositasida bo'lajak musiqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodlari	136
Aliyeva M. Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashirish	146
Rajabov X. Raqamli ta'lim muhiti b'ulajak kim'e 'qituvchilari axborot-metodik kompetentligini takomillashirish muammosi	151
Saydullayeva A. Ta'limda gender madaniyatni rivojlantirishda ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik-psixologik ahamiyati	157
Mamayusupov J. Analitik tafakkurni rivojlantirishda pedagogning intellektual faolligi va uning o'ziga xos xususiyatlari	164
Toshaliyev D. Milliy musiqiy meros va unga o'quvchilarda aksiologik munosabatni shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari	169
Shermatova Y.S. Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy metodlar	177
Yuldosheva D.T., Maxammadaminova D.A. Aqli zaif o'quvchilar nutqining fonetik tomondan buzilishi va ularni bartaraf etish yuzasidan logopedik ishlar	181
Oppoxo'jayev X.A. Inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarni o'zini -o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini rivojlantirish	189



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA - TA'LIM SAMARADORLIGINING ASOSI

Atamuratov R.K.

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti PhD

Tayanch so'zlar: raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar, axborotlashtirish, raqamli kompetensiyalar, ta'lim.

Ключевые слова: цифровая трансформация, цифровые технологии, информатизация, цифровая компетентность, образование.

Key words: digital transformation, digital technologies, informatization, digital competence, education.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda nafaqat mavjud, balki kelajak kasblari, hali ixtiro qilinmagan texnologiyalar, oldindan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarning yechimlari topish ko'nikmalarini shakllantirish kerak. Bu barcha sohalar singari raqamli transformasiya jarayoni davridagi ta'lim muassasalari uchun qo'yiladigan eng muhim vazifadir.

Raqamlirivojlanishning O'zbekiston iqtisodiy o'sishi uchun muhim ahamiyatini e'tirof etgan holda, hukumat raqamli transformatsiyani o'zining birinchi strategik kun tartibiga qo'yimoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini qabul qilish va 2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida raqamlashtirishga e'tibor qaratish shular jumlasidandir. Taraqqiyotning misli ko'rilmagan darajada tezlashishi, raqamlashtirish jarayonlarning bir zumda yangilanayotgani, har bir soha mutaxassisi o'z bilim va malakasini muntazam oshirib borishni talab qiladi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev bu borada quyidagicha fikr bildirgan edi: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash davr talabi. Bizga bu yuksalishning qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari kirib bormoqda".

Darhaqiqat, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish natijasida so‘nggi yillarida inson aql zakovati bilan tenglasha oladigan sun’iy intellekt tizimlarini yaratilishi, ish joylarini avtomatlashtirishning jadallashuvi va boshqa innovatsiyalar joriy etilishi to‘rtinchi sanoat inqilobining chiziqli emas, balki eksponensial sur’atda rivojlanishidan darakdir.

Buning natijasida ta’lim muassasalari bilim oluvchilarni yangi davrdagi muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan texnik, kognitiv, ijtimoiy, hissiy va raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish eng muhim masala sanaladi. Bunga erishishda esa ta’limning raqamli transformatsiyasini talab qiladi. Bu ma’lum vaqt davom etmasligini inobatga olib, doimiy o‘z ustida ishlash, fikrlash va ilg‘or texnologiyalarni o‘rganish va sohaga joriy etish kabi XXI asr ko‘nikmalari ekanligini anglash muhimdir.

Raqamli texnologiyalar hayotimizning hozirgi xolati va kelajagida muhim ahamiyat kasb etishi, shuningdek, ular orqali muloqot qilish, faoliyat yuritish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va shu kabi turli muammolarni hal qilishda foydalanamiz. Bunga misol sifatida, COVID-19 pandemiyasida raqamli texnologiyalarga qanchalik tayanishimizni ko‘rsatib berdi. COVID-19 pandemiyasi davrida dunyo mamlakatlarida ta’limdagi eng jiddiy uzilishlar va ta’lim yo‘qotishlariga ta’lim muassasalarining samarasiz AKT infratuzilmasi va kam manbalarga ega raqamli ta’lim tizimlaridan foydalanishi asosiy sabab sifatida qaraldi. Natijada, ta’lim muassasalarining yopilishi sababli dunyo bo‘ylab ta’lim oluvchilar zaruriy bilimlarni o‘zlashtira olishmadi. COVID-19 pandemiyasi tezkorlik bilan ta’lim muassasalari o‘zining o‘qitish modellarini o‘zgartirishga, inklyuziv, ochiq va barqaror ta’lim tizimlarini yaratish uchun texnologiya va inson resurslarining birgalikda ishlashi zarurligini ko‘rsatib berdi. Bu esa ta’lim muassasalarining raqamli salohiyati va tayyorgarligini hamda raqamlashtirish darajasini oshirish va muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyaga erishish uchun o‘rganish va tajribaga asoslanish zaruratini keltirib chiqardi.

Raqamli transformatsiya (inglizcha Digital Transformation, DT) - bu asosiy texnologik jarayonlarni boshqarish tizimini optimallashtirish hamda mavjud texnologiyalarni takomillashtirish bilan birga tashkilot tomonidan raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni[2].

Raqamli transformatsiya har bir sohani shakllantirgani kabi ta’lim sohasiga ham ta’sir qildi. Ta’limda raqamli transformatsiya bilim olish va o‘qitish jarayonlarini qayta ko‘rib chiqishni, raqamli transformatsiyaning amaliy jihatlarini bilim va texnik ko‘nikmalar orqali zamonaviy infratuzilma hamda raqamli dasturiy ta’minotlar bilan o‘zaro ishlash uchun mavjud (eski) texnologiyani modernizatsiya



qilish munosabatlarni o'z ichiga olgan holda raqamli savodxon bo'lish hamda raqamli transformatsiya drayverlaridan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ta'limda raqamli transformatsiyaning drayverlari va ularning manbalari sifatida texnologik va tashkiliy drayverlar, raqamli ta'lim kompetensiyalar, ta'lim oluvchilarning moslashuvchan ko'nikmalari (Soft Skill) va maxsus-kasbiy ko'nikmalar (Hard Skill) hamda pedagogik omillar hisoblanadi.

Ta'lim jarayonlarini tubdan o'zgartirishi mumkin bo'lgan texnologik drayverlar sifatida quyidagi innovatsiyalar: bulutli hisoblashlar (Cloud Computing), sun'iy intellekt (Artificial Intelligence), buyumlar interneti (Internet of Things), raqamli o'yinlar (Digital Games), to'ldirilgan borliq (Augmented Reality), 5G tarmoqlar (5G Networks), ijtimoiy tarmoqlar (Social Networks) hamda ta'limiy dasturiy ta'minotlar (Educational Software) kiradi[3].

Tashkiliy drayverlar sifatida Ta'lim 4.0 strategiyasini ishlab chiqish, inklyuziv, gender jihatdan muvozanatli raqamlashtirishni targ'ib qilish, o'quv dasturlarini qayta ishlash, yangilash va moslashtirish, o'zaro muloqot uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish, ta'limiy ko'nikmalarni shakllantirish, raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim berish tajribasini yaxshilash, turli innovatsiyalar, fanlararo uzviylikni ta'minlash, innovatsion pedagogik yondashuv, gibril ta'lim metodlaridan foydalanish, amaliy mashg'ulotlarni baholash va teskari aloqani o'z ichiga oladi.

Jamiyatning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish, globallashtirish va axborotlashtirish jarayoni barcha sohalarga, shu jumladan ta'limga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Deyarli barcha kelajakdagi ta'lim va ish o'rinlari ma'lum darajadagi tez o'zgaruvchan raqamli malaka va ko'nikmalarni talab qiladi. Raqamli kompetentlik raqamli texnologiyalar bilan bog'liq ko'nikmalarni tavsiflovchi yangi tushunchalardan biridir.

So'nggi yillarda raqamli ko'nikma va malakalarni tavsiflash uchun "AKT ko'nikmalari", "texnologik ko'nikmalar", "IT ko'nikmalari", "XXI asr malakalari", "axborot madaniyati", "raqamli savodxonlik va raqamli ko'nikmalar" kabi bir qancha atamalar qo'llanilmoqda. Ushbu atamalar ko'p hollarda "raqamli kompetensiya" va "raqamli savodxonlik" kabi bir-birining o'rnida ishlatiladi[4].

Raqamli ta'lim kompetensiyalari sifatida ta'lim olishni o'rganish, doimiy teskari aloqa qilish va fikr mulohazalarni bildirish, umumta'lim uchun raqamli texnologiyalar integratsiyasi, ehtiyojlardan kelib chiqqan holda zarur texnologiyani to'g'ri tanlay olish, jamoaviy ishlash va rejalashtirish, shaxsiy va jamoaviy ta'lim maqsadlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish, innovatsion pedagogik yondashuvlar va baholashdan foydalanishlarni qamrab oladi.

M.Fayziyeva ilmiy tadqiqotlariga ko'ra, raqamli transformatsiya sharoitida ta'limni tashkil etish o'quvchilarda yuqori darajadagi fikrlash qobiliyati va kontseptual tushunishni rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni yaxshilash, turli tushunchalar bo'yicha axborot yaratish va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish va o'z faoliyatini samarali yo'lga qoyish ko'nikmalarini shakllantiradi[6].

YuNESKO tomonidan ham dunyo mamlakatlariga ta'lim maqsadlariga erishish yo'lidagi taraqqiyotni tezlashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlar, shuningdek, inklyuziv va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash, barcha uchun umrbod ta'lim imkoniyatlarini targ'ib qilish, o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning raqamli savodxonlik va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish ustida ish olib borishga ko'maklashib keladi.

Bunday raqamli transformatsiyaning drayverlari orqali bilimlarni egallagan ta'lim oluvchilar raqamli dunyoni bilgan holda o'z vaqtini to'g'ri taqsimlashi, yuqori sifatni kafolatlaydigan manbalarni tanlashi; ta'lim jarayonida tayyor interfaol topshiriqlardan foydalanish orqali vaqtni tejash yoki o'zinikini yaratishi; o'quv jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanishini ta'minlaydi.

Bunga erishish uchun ta'lim muassasalari tashkiliy qayta qurishdan o'tishi kerak. Ta'lim muassasalari dasturini doimiy ravishda yangilash va moslashtirish, aloqani qo'llab-quvvatlash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish, ta'lim oluvchilar va mutaxassislar, jumladan, boshqa ta'lim maskanlari o'rtasidagi fazoviy va vaqt cheklovlarini olib tashlash muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari fanlararo tadqiqotlarni rag'batlantirishlari va gibrud o'qitish usullaridan foydalanishlari kerak. O'qituvchilarga mustaqillik va auditoriyada innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash kerak[9].

Bir paytlar ta'lim shunchaki insonga bilim berishdan iborat edi. Endi ta'lim oluvchilarni tobora noaniq va o'zgaruvchan muhitda o'zining istiqbolli traektoriyasiga yo'naltiradigan ko'nikmalar bilan qurollantirish kerak. Buning uchun esa, har bir o'qituvchilarning o'zi ham raqamli ko'nikmalar hamda tegishli vakolatlarga ega bo'lishi darkor.

Ta'lim oluvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni ilm olishga o'rgatish kerak. Ta'lim oluvchilarning mustaqilligi va mas'uliyatini rag'batlantirish, ularda bahslashish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, kognitiv jarayonlar bilan birgalikda kashfiyotchilik va har bir qabul qilingan qarorlar muhokama qilinish asoslanishi, savollar berishlari, kuzatishlar olib borishlari hamda o'qituvchining mulohazalari bo'yicha o'z fikri va pozitsiyasini bildirishi kerak.

Raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiyalashuvi ta'lim oluvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan materiallarni ishlab chiqish, masofaviy o'qitish, nazorat va baholashning yangi usullarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.



Buning uchun zamonaviy o'qituvchi har bir o'quv vazifasiga muvofiq kerakli texnologiyalardan foydalanishni bilishi, ularning foydaliligi, mazmuni va atrof-muhitga mosligi, ishonchliligi, xavfsizligi, sifati, dizayni, ishlash prinsipi, jozibadorligi va interaktivligini adekvat baholashi kerak.

Shuningdek, ta'limni raqamlashtirish professor-o'qituvchilarning bir jamoada ishlashi, onlayn tarmoq orqali o'quv materiallarini birgalikda ishlab chiqish, boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish, hamkasblar bilan tajriba almashish, innovatsion usullarni o'zlashtirish va tarqatish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ularning o'zlari ham xalqaro tajribalarni, innovatsion texnologiyalar va produktiv ta'lim modellarini o'zlashtiradi.

Ta'lim modellari ta'lim oluvchilarga o'qish, ish va turli muloqotlarni o'rnatish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni berish uchun moslashishi kerak. Bunday shaxslararo muloqot qobiliyatlari "Moslashuvchan ko'nikmalar (Soft Skill)" deb ataladi. Moslashuvchan ko'nikmalar o'zgaruvchan dunyoga va turli kasbiy vazifalarga moslashish, hayot davomida mustaqil ravishda bilim olish, muloqot, ijtimoiy va madaniy xabardorlik, ijodkorlik, qiziquvchanlik, empatiya, tashabbuskorlik, yetakchilik, tanqidiy va analitik fikrlash, mas'uliyat, muammolarni hal qilish hamda jamoaviy ishlashni o'z ichiga oladi.

Ta'lim 4.0 tizimi ta'lim oluvchilarda rivojlanishi kerak bo'lgan ko'nikmalarning yana bir toifasi odatda "Maxsus-kasbiy ko'nikmalar (Hard Skill)" deb atalib, professional kompetensiyalar va texnik ko'nikmalarni qamrab oladi. Zamonaviy xodimlar o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlardan tashqari, raqamli texnologiyalar interfeysi dizaynini tushunishlari, boshqaruv ko'nikmalari ya'ni, xodimlar, sifat, vaqt, texnologik resurslarni va barcha turdagi xavflarni boshqarish qobiliyatini egallashi kerak. Shuningdek, moliyaviy menejment asoslarini bilishi, jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlardan xabardor bo'lishi va tushunishi, hisoblash va mantiqiy fikrlashlari ham "maxsus-kasbiy ko'nikmalar" toifasiga kiradi.

Raqamli transformasiya jarayoning eng muhim jihati innovatsion ta'lim texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakllari, ilg'or usul va uslublarni, ilmiy-amaliy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, o'quv jarayonlari loyihalarni tuzib chiqishni tashkillashtirish va ta'lim amaliyotiga keng tatbiq etishda pedagogik omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bularga rivojlangan davlatlarda sinovdan o'tgan ilg'or zamonaviy ta'lim texnologiyalari jumladan: innovatsion yondashuvlar, muammoli ta'lim, loyihaga asoslangan ta'lim, o'yin o'rganish, taktik ta'lim, aralashtirilgan ta'limni o'z ichiga oladi. Shu kabi ilg'or zamonaviy ta'lim texnologiyalari ta'lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritishi, ijodkorlik faoliyatining rivojlantirilishi, axborot olishi, qayta ishlashi, umumlashtirishi,

ijobiy xulosa chiqarishi, to'g'ri qaror qabul qilishi va yuqori salohiyatga ega mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam beradi. Lekin ayrim ta'lim muassalari an'anaviy ta'limga ko'nikib qolganligi, ba'zi bir professor-o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bo'yicha dars berishga kompetensiyalarining yetarli darajada emasligi, ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari talab darajasida shakllanmaganligi, o'qituvchilarga dastlabki bosqichda katta yuklama tushishi va ta'lim texnologiyalarni qo'llashda muammolarni keltirib chiqaradi.

Sifatli ta'lim bu nafaqat kelajak garovi, balki hozirgi yoki kelajakdagi har qanday muammolarni hal qilish imkonini beradigan nomoddiy qadriyatdir. Bugungi kunda dunyodagi vaziyat o'z kasbining barcha nozik tomonlarini biladigan, o'zaro faoliyatning har bir bosqichida bog'lab turuvchi bo'g'inga aylangan soha ya'ni zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi masalalarini yechimiga ijodiy yondasha oladigan avlodni tarbiyalash muhimligini ko'rsatmoqda.

Yuqori samaradorlikka erishish uchun nafaqat o'qitilayotgan mazmunga, balki bilimlarning o'quvchilarga qanday uzatilishiga ham e'tibor qaratish lozim. Talabalarda jamiyat va mehnat bozoridagi o'zgarishlar bilan bog'liq muammolarni yengib o'tish imkonini beradigan moslashish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ularni ko'proq avtonomiyaga, o'zini-o'zi boshqarishga va mas'uliyatga ega bo'lishga rag'batlantirish kerak. Natijada ta'lim muassasa muhitida va tashqarisida uzluksiz bo'ladi.

Tahlil qilingan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar ta'lim muassasalari raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanmasa, ta'limdagi raqamli transformatsiyaning ko'plab kamchiliklari, masalan, o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va o'quv dasturidagi zarur bilimlar, ko'nikma va malakalarni egallashga salbiy ta'sir qiladi.

Ta'lim oluvchilarni ko'pchiligi raqamli qurilmalardan o'quv mashg'ulotlarda foydalanishni xohlashadi. Natijada kundalik o'quv mashg'ulotlarining raqamli qurilmaga ko'chishi, bu tajribasi odatiy holga aylanishi va ana'aniy o'quv jarayonidan chalg'itishi, buning oqibatida ta'limda raqamli transformatsiyaning bir nechta xavflaridan birini keltirib chiqarishi mumkin.

Bularga misol qilib, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim texnologiyalarining (ChatGPT) noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etishi, ta'lim oluvchining o'rniga vazifalarni bajarish (generativ sun'iy intellekt vositalaridan foydalangan esse yozish va hokazo) va boshqa o'quv jarayoniga zarar etkazishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlari mavjud.

Albatta bunday muammolar har doim bo'ladi. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishda davom etar ekan, kelgusi bir necha yil ichida ta'lim va unga



bog'liq ko'plab jarayonlar raqamli transformatsiyadan o'tishiga shubha yo'q. Ta'limning raqamli transformatsiyasi taqdim etayotgan son-sanoqsiz potentsial imkoniyatlarni hisobga olgan holda, bunday yechimlarni samarali amalga oshirish uzoq muddatli rejalashtirish, daromad-xarajat tahlili, xavfsizlik masalalari va foydalanuvchilarni qabul qilish bo'yicha qat'iy testlarni o'z ichiga olishi zarur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020 y.
2. Vial, G. (2019). Understanding digital transformation: A review and a research agenda. The journal of strategic information systems, 28(2), 118-144.
3. OLIVEIRA, K. K. d. S., & de SOUZA, R. A. C. (2022). Digital Transformation towards Education 4.0. Informatics in Education, 21(2), 283-309. doi:10.15388/infedu.2022.13
4. P.Ustin, E.Sabirova, I.Garipova. (2023). Digital competencies of a teacher as an actor of educational activity in his individual trajectory.
5. Atamuratov, R. (2023). Oliy ta'lim muassasalari talabalarida raqamli kompetensiyani rivojlantirish // Oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida innovatsion o'qitish texnologiyalarini qo'llash masalalari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani. –Toshkent, 183-185.

РЕЗЮМЕ

Jahonda ta'lim jarayoniga yangi raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish har qachongidan ham jadallashib bormoqda. Ta'lim muassasalarini raqamli tajribasining yangi darajalariga chiqishiga ko'maklashadigan raqamli transformatsiyaning drayverlari va vositalaridan foydalanish bilim maskanlaridagi raqamli ta'limni misli ko'rilmagan darajada o'zgarishiga, shuningdek, insonlarning faoliyat yuritishi hamda turmush tarzini ijobiy tomonga o'zgartirmoqda. Uchinchi renessans yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha raqamli modernizatsiya masalasi dolzarb sanaladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiya o'qitish samaradorligini oshiruvchi asosiy omillaridan biri ekanligi xususida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

Интенсивное внедрение новых цифровых технологий в образовательный процесс приобретает все большую актуальность в мире. Опыт использования драйверов и инструментов цифровой трансформации, подтверждает выведение образовательных учреждений на новый уровень, данные трансформации способствуют беспрецедентным изменениям в цифровом образовании, а также оказывают значительное положительное влияние на процесс жизнедеятельности людей. Актуальным вопросом для нашей страны, идущей по третьему пути возрождения, является процесс эффективного реформирования системы непрерывного образования путем внедрения цифровых технологий и цифровой модернизации системы образования. В связи с этим в данной статье рассматривается вопрос цифровой трансформации образовательного процесса как один из ключевых факторов повышения эффективности обучения.

SUMMARY

The introduction of new digital technologies into the educational process is becoming increasingly significant in the world. The experience of using drivers and tools of digital transformation confirms the taking of educational institutions to a new level; these transformations contribute to unprecedented changes in digital education, and also have a significant positive impact on the lives of people. A vulnerable topic for our country, which is leading to the third path of renaissance, is the process of effective reforms of the lifelong education system through the introduction of digital technologies and digital modernization of the education system. In this regard, this article examines the issue of digital transformation of the educational process as one of the key factors in increasing the effectiveness of learning.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ХӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ»**

№ 6/3

Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Р. Утепов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев

Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: 224-23-00

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednauk@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Муғаллим хәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 18.12.2023. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 27 . Нашр. т. Нускасы _____ Буйыртпа №